



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 8 - dekabr

216-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test markaziga yer maydoni ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi PQ-4319-son, “2021/2022 o‘quv yilidagi O‘zbekiston Respublikasini oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi PQ-5157-son va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorlariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test markazining 2021-yil 29-sentabrdagi 89-01-7499-son xatini inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Termiz shahar “Tinchlik” MFY hududidan qishloq xo‘jalik xaritasining 214q-dala konturidagi 2,18 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test markaziga test sinovlari o‘tkaziladigan katta sig‘imli bino va inshootlarni barpo etish uchun doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdiraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni, yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini va Termiz shahar yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritishni ta’minlasin.

4. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e'lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.